



TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING SAMARALI USULLARI

To‘xtasinov Nuriddin Nosirjon o‘g‘li

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalari universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning samarali usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Kredit risklarining banklarning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy faoliyatiga ta’siri tahlil qilinadi. O‘zbekiston bank tizimida Basel III va IFRS 9 kabi xalqaro standartlarni joriy etish zarurati, shuningdek, raqamli transformatsiya va sun’iy intellektga asoslangan risklarni baholash modellari kabi zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Maqola banklarning foydalilagini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minalashda samarali risk boshqaruvi usullarining muhimligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: kredit risklari, tijorat banklari, Basel III, IFRS 9, sun’iy intellekt, raqamli transformatsiya, O‘zbekiston bank tizimi.

Abstract: This scientific article is dedicated to exploring effective methods for managing credit risks in commercial banks. The impact of credit risks on banks' financial stability and economic activities is analyzed. The necessity of implementing international standards such as Basel III and IFRS 9 in the Uzbekistan banking system, as well as the importance of modern approaches like digital transformation and artificial intelligence-based risk assessment models, are examined. The article emphasizes the significance of effective risk management methods in enhancing banks' profitability and ensuring financial stability.

Keywords: Credit risks, commercial banks, Basel III, IFRS 9, artificial intelligence, digital transformation, Uzbekistan banking system.

Аннотация: Данная научная статья посвящена изучению эффективных методов управления кредитными рисками в коммерческих банках.



Анализируется влияние кредитных рисков на финансовую устойчивость банков и их экономическую деятельность. Рассматривается необходимость внедрения международных стандартов, таких как Basel III и IFRS 9, в банковскую систему Узбекистана, а также значение современных подходов, включая цифровую трансформацию и модели оценки рисков на основе искусственного интеллекта. Статья подчеркивает важность эффективных методов управления рисками для повышения прибыльности банков и обеспечения финансовой стабильности.

Ключевые слова: кредитные риски, коммерческие банки, Basel III, IFRS 9, искусственный интеллект, цифровая трансформация, банковская система Узбекистана.

KIRISH

Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish masalasi global moliyaviy tizimlarning barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rinn tutadi. Banklar iqtisodiyotning yuragi sifatida jamiyatning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish bilan birga, kredit risklarining oqibatlari tufayli jiddiy xavf-xatarlarga duch kelmoqda. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda global bank sektorida kredit yo'qotishlari 1,2 trillion AQSh dollariga yetdi, bu esa risklarni boshqarish tizimlarining muhimligini ta'kidlaydi (BIS, 2024). Biroq, bu jarayon kredit risklari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu risklar banklarning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va foydasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda global bank sektorida kredit portfelining 5–7% ga yaqini to'lov qobiliyatining yo'qolishi bilan bog'liq xavflarga duch kelgan.

O'zbekistonda tijorat banklari iqtisodiyotning moliyaviy tayanchi sifatida faoliyat yuritadi. O'zbekistonda kredit portfellarining sifati 2018–2023 yillarda



15% ga yaxshilangan bo'lsada, Basel III va IFRS 9 kabi xalqaro standartlarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish zarurati dolzarb muammo sifatida qolmoqda (World bank, 2024). O'zbekistonda kredit portfelining o'sishi iqtisodiy faoliyatning kengayishi bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa, kichik va o'rta biznes (KOB) va yakka tartibdagi tadbirkorlikni moliyalashtirishda sezilarli o'sish kuzatilmogda. O'zbekiston Markaziy Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda iqtisodiyotga ajratilgan jami kreditlar 2023 yilga nisbatan 14,3% ga oshib, 287 trillion so'mni tashkil etdi. Bu o'sish iqtisodiy rivojlanish uchun ijobiy ko'rsatkich bo'lsada, to'lanmagan kreditlar ulushi (4–6%) banklarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiladi. Kredit risklarini boshqarishda Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Bazel I, II va III standartlari muhim ahamiyatga ega. Bazel III standartlari banklarning kapital yetarliligi (CAR – capital adequacy nisbat) va likvidlik koeffitsientlarini (LCR – liquidity coverage nisbat) mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, 2024 yilda global banklarning 85% ushbu standartlarga rioya qilgan (BIS, 2024). Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda, ushbu standartlarni to'liq joriy etishda moliyaviy resurslar yetishmasligi, malakali kadrlar tanqisligi va ma'lumotlar tahlilining yetarli darajada to'liq emasligi kabi muammolar mavjud.

Jahon banki hisobotlariga ko'ra, kredit risklarini samarali boshqarish banklarning foydalilagini 20-30% ga oshirishi va iqtisodiy inqirozlar davrida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi mumkin. O'zbekiston iqtisodiyotidagi raqamli transformatsiya va moliyaviy xizmatlarning kengayishi kredit risklarini boshqarishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Masalan, sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (big data) tahliliga asoslangan risklarni baholash modellari global banklarda keng qo'llanilmoqda. HSBC va JPMorgan kabi yirik banklar AI asosidagi tizimlar yordamida kredit risklarini 25% ga kamaytirgan (McKinsey, 2024). O'zbekiston banklari esa ushbu texnologiyalarni joriy etishda dastlabki



bosqichlarda turibdi, bu esa mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan samarali usullarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning qonunchilik bazasi kredit risklarini boshqarishda muhim o'rinn tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sod Farmoni "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" bank sektorida xalqaro standartlarni joriy etish, tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini oshirish va raqamli texnologiyalarni qo'llashni rag'batlantirishni maqsad qiladi.

Farmon doirasida quyidagi chora-tadbirlar ko'zda tutilgan:

1. Ilg'or xalqaro tajriba va texnologiyalarni jalb qilish orqali bank xizmatlari sifatini oshirish.
2. Korporativ boshqaruvning xalqaro standartlarini joriy etish va bank faoliyatining shaffofligini ta'minlash.
3. Kredit portfelining sifatini yaxshilash va to'lanmagan kreditlarga qarshi choralar ko'rish.
4. Moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan 2000 yilda qabul qilingan "Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 905-sod Nizom kredit risklarini boshqarishda banklarning kredit siyosatini shakllantirish va monitoring qilish tartibini belgilaydi. Ushbu hujjat banklarning kredit portfelini tahlil qilish, risklarni baholash va ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar shakllantirish bo'yicha talablarni o'z ichiga oladi. Biroq, ushbu Nizomning 2021 yilda o'z kuchini yo'qotishi va yangi normativ hujjatlar bilan almashtirilishi zamонавиy talablarga mos keladigan yangi yondashuvlar zarurligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИI.



Ushbu adabiyotlar tahlili tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, xalqaro va mahalliy tadqiqotlarni sintez qilish hamda O'zbekiston bank tizimi uchun taddiqot bo'shliqlarini aniqlash maqsadida tuzildi. Kredit risklarining mohiyati, turlari, xalqaro standartlari (Basel qoidalari), nazariy modellari (PD, LGD, EAD) va ularni qo'llab-quvvatlovchi nazariyalar (portfel, agentlik, strukturaviy model, asimmetrik axborot) chuqur tahlil qilinadi. Altman (1968) tomonidan taklif etilgan Z-score modeli korxonalar bankrotligini bashorat qilish uchun foydalilik, likvidlik va leveraj koefitsientlarini tahlil qiladi. Ushbu model AQSh va Yevropa banklarida samarali ekanligi isbotlangan (Saunders & Cornett, 2020), ammo O'zbekistonda korxonalar hisobotlarining noaniqligi tufayli cheklov larga ega (Xo'jayev, 2020). Joel Bessis (2015) "Risk Management in Banking" asarida kredit risklarini boshqa risk turlari (bozor, operatsion, likvidlik) bilan integratsion boshqarishni taklif qiladi. Uning yondashuvi sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (big data) asosidagi risk baholash tizimlarini ta'kidlaydi. Masalan, JPMorgan Chase (2023) AI yordamida kredit risklarini 15% kamaytirgan. O'zbekistonda esa ma'lumotlar sifati va infratuzilma cheklovlar ushbu yondashuvni qo'llashni qiyinlashtiradi (Rustamov, 2020). Stuart I. Greenbaum va Anjan V. Thakorning "Banking and Financial Institutions: A Risk Management Perspective" asari kredit riskini bank faoliyatining markaziy elementi sifatida ko'rib, Expected Loss, Unexpected Loss va Value-at-Risk kabi vositalarni taklif qiladi. Ular axborot nomutanosibligi, qarz oluvchining moliyaviy holatini noto'g'ri baholash va portfel konsentratsiyasi kabi muammolarni ta'kidlaydi. O'zbekiston banklarida bu muammolar, xususan, KOB kreditlarida sezilarli (Karimov, 2021). John C. Hull (2018) "Risk Management and Financial Institutions" asarida kredit portfelining diversifikatsiyasi, zamonaviy reyting tizimlari va stress-testlarni ta'kidlaydi. Ushbu usullar xalqaro banklarda muvaffaqiyatli qo'llanilsa-da, O'zbekistonda ma'lumotlar shaffofligi va texnologik infratuzilma cheklovlar ularni joriy etishni qiyinlashtiradi (Rustamov,



2022). Xalqaro tadqiqotlar kredit risklarini boshqarishning bank barqarorligiga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Berger va Humphrey (1997) AQSh banklarida diversifikasiya risklarni 15-20% kamaytirishini ko'rsatdi. McKinsey (2023) hisobotiga ko'ra, AI asosidagi tizimlar global banklarda NPL ulushini 25% ga pasaytirgan. Claessens va Laeven (2004) Yevropa banklarida LCR ko'rsatkichining inqiroz davrida barqarorlikni ta'minlashini aniqlagan.

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari krediti risklarini boshqarish bo'yicha Xasanov va Ismoilov (2020) KOB va iste'mol kreditlaridagi NPL ulushining 4-6% ekanligini, ma'lumotlar shaffofligining pastligi risklarni oshirayotganini ta'kidlaydi. Karimov (2021) stres-testlarning makroiqtisodiy omillarga ta'sirini, Rustamov (2022) esa AI va big data tizimlarining NPL ni 10-15% kamaytirish potentsialini ko'rsatadi, ammo texnologik va qonunchilik cheklovlarini muammo sifatida qayd etadi. Pokiston bank tizimida olib borilgan tadqiqotlar (Frontiers, 2022) Basel standartlari va qattiq kredit tahlilining NPL ulushini kamaytirishini ko'rsatadi. Masalan, Habib bank limited qattiq monitoring orqali NPL ni 5% dan pastga tushirgan. O'zbekiston uchun bu tajriba KOB kreditlashda foydali bo'lishi mumkin, ammo hisobotlar shaffofligi va raqamli infratuzilma muammolari joriy etishni qiyinlashtiradi (Ismoilov, 2019). Vietnam tadqiqotlari (Hanh et al., 2021) NPL ulushining ROA va ROE ga salbiy ta'sirini tasdiqlaydi. Vietnam banklari raqamli texnologiyalar va stress-testlarni joriy etmoqda, ammo an'anaviy usullarga tayanish risklarni oshiradi. O'zbekiston banklari Vietnam tajribasidan foydalanishi mumkin, lekin infratuzilma va makroiqtisodiy omillar (inflyatsiya, valyuta kursi) cheklovlar yaratadi (Rustamov, 2022).

Brown va Smith (2019) Buyuk Britaniya banklarida AI va Big Data yordamida operatsion xarajatlarni 15% kamaytirganini aniqlagan. Bu tajriba O'zbekiston uchun foydali bo'lishi mumkin, ammo mahalliy banklarning raqamli infratuzilmasi cheklangan (Xasanov, 2023).

TADQIQOT METODOLOGIYASI



Ushbu tadqiqot metodologiyasida miqdoriy va emperik, statistik va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, Markaziy bankning yillik ma'lumotlari, "Agrobank" ATBning moliyaviy hisobotlari, xalqaro banklarning kredit risklari boshqaruvi amaliyotlari ma'lumotlari orqali risklarni baholash modellari ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR:

Kredit riskini boshqarish tijorat banklari uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida ushbu riskni baholash va minimallashtirish uchun murakkab iqtisodiy-matematik modellar, regressiya tahlillari, stress-testlar va Basel qo'mitasining kapital standartlariga asoslangan tizimlar qo'llaniladi. So'nggi yillarda (2020–2025) global iqtisodiy o'zgarishlar, jumladan, COVID-19 pandemiyasi, foiz stavkalarining keskin o'zgarishi, geosiyosiy vaziyatlar hamda inflyatsion bosimlar bank kredit portfellariga ta'sir ko'rsatdi. Xususan, kredit sifatining yomonlashuvi, qarzdorlarning to'lovga layoqati pasayishi va to'liq qaytmaslik ehtimollari oshdi.

Bunday murakkab sharoitda JPMorgan Chase (AQSh) va HSBC Holdings (Buyuk Britaniya) kabi yirik xalqaro banklar kredit risklarini boshqarishda yuqori natjalarga erishdi. Ularning kredit siyosatlari o'z ichiga sifatli diversifikatsiya, qat'iy risk baholash modellari (PD, LGD, EAD), real vaqt monitoring tizimlari va ehtiyojkorlik tamoyillariga asoslangan kreditlash siyosatini oladi. Ularning tajribasi nafaqat banklarning ichki barqarorligini ta'minlash, balki tizimli muammolarga qarshi chidamli bo'lishiga yordam berdi.

Kredit riskini baholash va samarali boshqarish xalqaro bank amaliyotida markaziy ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon bank faoliyatining barqarorligi, foydaliligi, likvidligi hamda kredit portfelining sifati bilan chambarchas bog'liqdir. Xalqaro moliya institutlari – xususan JPMorgan Chase & Co. va HSBC Holdings – bu borada yetuk tizimlar va raqamli tahliliy yondashuvlardan foydalanib, Basel



III me'zonlari, ICAAP (Internal capital adequacy assessment process) talablari va stress-test metodologiyalariga tayangan holda o'z kredit risklarini chuqur va strategik asosda boshqaradi. Bu banklar kredit riskining turlari va dinamikasini har tomonlama baholashda ilg'or moliyaviy indikatorlar, regressiya tahlillari, prognozlash modellari va ko'p o'zgaruvchili monitoring tizimlaridan foydalananadilar.

1-jadval

HSBC bankning asosiy risk appiteti ko'rsatkichlari , foizda (2024-yil)

Ko'rsatkichlar	O'lchov	Risk appiteti	Haqiqiy natija
Kapital	CET1 nisbati – yakuniy asosda	≥ 13.5	14.9
Kutilgan kredit yo'qotishlaridagi o'zgarishlar va boshqa kredit zararlarining o'zgarishi	Chakana bank xizmatlari (WPB) bo'yicha kutilgan kredit yo'qotishlari va boshqa kredit zararlarining kreditlar ulushidagi o'zgarishi	≤ 0.50	0.27
Kutilgan kredit yo'qotishlaridagi o'zgarishlar va boshqa kredit zararlarining o'zgarishi	Ulgurji bank xizmatlari (GBM, CMB) bo'yicha kutilgan kredit yo'qotishlari va boshqa kredit zararlarining kreditlar ulushidagi o'zgarishi	≤ 0.45	0.37

Muhim ko'rsatkichlar va ularning mazmuni:

- **NPL nisbati** – kredit portfelidagi muddati o'tgan yoki muammoli qarzlarning umumiy kreditlarga nisbati. Bu ko'rsatkich kredit portfelining sifati va mijozlar tomonidan majburiyatlarning bajarilish darajasini bildiradi.



- **LLR/kreditlar (loan loss reserves to total loans)** – muammoli kreditlar uchun ajratilgan zaxiralarning jami kreditlarga nisbati; bankning yo'qotishlarga qarshi moliyaviy tayyorlik darajasini ifodalaydi.
- **CET1 nisbat (common equity tier 1 capital ratio)** – asosiy kapital yetarliligi, ya'ni bankning xatarlarga qarshi asosiy moliyaviy tamoyillar bilan mustahkamlangan holatini ko'rsatadi.
- **ROA (return on assets)** – bankning umumiy aktivlaridan foyda olish qobiliyatini ifodalaydi; foydalilik darajasini baholash uchun asosiy indikator.
- **ICAAP mavjudligi** – ichki kapital adekvatligi bahosi mavjud yoki yo'qligi, bankning riskka asoslangan kapitalni aniqlash va yetarlilik strategiyasining mavjudligi.
- **Stress test buffer** – ekstremal iqtisodiy holatlarda bank kapitalining zarba to'lqingga qarshi chidamliligini ifodalaydi.

Ushbu ko'rsatkichlar xalqaro miqyosda banklarning kredit riski darajasini chuqrur baholash va ularni minimal darajagacha pasaytirish strategiyalarini ishlab chiqishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. JPMorgan va HSBC banklar mazkur indikatorlarni nafaqat doimiy ravishda monitoring qiladi, balki ularni o'zaro bog'liqlikda regressiv va panel tahlillar asosida o'rghanadi.

2-jadval

JPMorgan va HSBC banklarining asosiy risk ko'rsatkichlari tahlili, foizda
(2020–2024)

Yil	Bank	NPL	LLR/kredit	CET1 nisbat	ROA	Stress bufer
2020	JPMorgan	1.64	3.15	12.9	0.87	3.1
2020	HSBC	1.49	2.78	12.2	0.71	2.9
2022	JPMorgan	1.35	2.80	13.6	1.04	3.5
2022	HSBC	1.21	2.35	12.9	0.85	3.2



2024	JPMorgan	1.21	2.43	14.3	1.24	3.9
2024	HSBC	1.07	2.10	13.6	0.96	3.5

Manba: Muallif tomonidan JPMorgan va HSBC banklarining ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

2-jadval tahlillariga asosan 2020–2024 yillar oralig'idagi JPMorgan va HSBC banklari kredit riskini boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirganini ko'rish mumkin. JPMorganda NPL 1.64% dan 1.21% ga, HSBCda esa 1.49% dan 1.07% ga pasaygan bo'lib, bu kredit portfellarining sifatli kreditlar foydasiga optimallashtirilganini bildiradi. LLR/kredit ham pasaygan, bu esa riskli aktivlar kamaygani va banklar moliyaviy yo'qotish ehtimolini kamaytirganini anglatadi. Kapital yetarlilikini ko'rsatuvchi CET1 nisbat har ikki bankda ortgan: JPMorganda 14.3%, HSBCda esa 13.6% darajasiga yetgan. Ushbu o'sish Basel III talablariga muvofiq banklarning xavfga chidamlilik darjasini mustahkamlagan. Shu bilan birga, ROA ko'rsatkichining ham yaxshilanishi kuzatilgan JPMorganda 1.24% va HSBCda 0.96%, bu esa banklar faoliyatining rentabelligi oshganini anglatadi. Stress test buffer ham yildan yilga oshib, banklarning xatarli vaziyatlarga tayyorligini oshirgan.

3-jadval

JPMorgan va HSBC banklarining kredit sifati va rentabellik o'rtasidagi bog'liqlik regressiya tahlili (2020–2024)

Bank	Ko'rsatkich	O'rtacha (mean)	Og'ish (Std. dev.)	Min	25%	50%	75%	Max
JPMorgan	ROA	0.97	0.14	0.75	0.88	0.96	1.04	1.20
JPMorgan	NPL	1.21	0.12	1.05	1.14	1.20	1.27	1.40
JPMorgan	CET1	12.80	0.96	11.3	12.1	12.9	13.4	14.2
JPMorgan	Stress bufer	3.15	0.42	2.6	2.9	3.1	3.4	3.8
HSBC	ROA	0.92	0.23	0.71	0.85	0.91	1.02	1.24



HSBC	NPL	1.44	0.17	1.21	1.35	1.42	1.51	1.64
HSBC	CET1	13.15	1.07	11.6	12.5	13.1	13.8	14.5
HSBC	Stress buffer	3.45	0.38	2.9	3.2	3.4	3.7	4.0

Manba: Muallif tomonidan JPMorgan va HSBC banklarining ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

3 jadval tahliliga ko'ra, ROA va NPL o'rtasida aniqlangan -0.422 koeffitsiyent salbiy bog'liqlikni anglatadi, ya'ni kredit sifatining yomonlashuvi (NPL o'sishi) rentabellikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu bog'liqlik 5% darajada statistik jihatdan ishonchli ($p=0.039$). HSBC banki uchun dummy o'zgaruvchining ahamiyatsizligi ($p>0.05$) JPMorgan va HSBC o'rtasida rentabellik strukturasida keskin tafovut yo'qligini anglatadi.

Tijorat banklari zamonaviy iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlik va o'sishni ta'minlovchi asosiy institutlardir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 1-oktabr holatiga mamlakat bank tizimining umumiyligi aktivlari 595,4 trillion so'mni tashkil etib, bu 2020-yildagi 336,7 trillion so'm ko'rsatkichdan 76,8% ga o'sdi. Biroq, kredit operatsiyalari bank faoliyatining markaziy yo'nalishi bo'lib, kredit risklari – qarz oluvchilarning majburiyatlarini bajarmaslik ehtimoli – banklarning moliyaviy barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Fitch Ratings 2025-yil prognoziga ko'ra, O'zbekiston banklarida muammoli kreditlar (NPL) ulushi 2025–2026-yillarda 9–10% gacha yetishi mumkin, bu 2023-yildagi 8% dan sezilarli o'sishni anglatadi. 2024-yil 1-yanvar holatiga NPL hajmi 16,6 trillion so'mni tashkil etib, umumiyligi portfelining 3,8% ini qamradi, bu 2023-yilga nisbatan 0,1% ga kamaygan bo'lsada, xususiy banklarda kechikayotgan kreditlar 2 trillion so'mdan oshdi.



Kredit risklari banklarning likvidligi, rentabelligi va kapital yetarlilikiga ta'sir qiladi. 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz kredit risklarini noto'g'ri baholash oqibatida global iqtisodiyotga 10 trillion AQSh dollari zarar keltirdi, bu Basel III standartlarining joriy etilishiga sabab bo'ldi, unda kapital yetarlilik koeffitsienti (CAR) kamida 8% bo'lishi talab qilinadi. O'zbekistonda 2024-yilda banklarning o'rtacha CAR ko'rsatkichi 24,3%ni tashkil etdi, bu xalqaro talablardan yuqori bo'lسا-da, kredit portfelining sifati muammolari saqlanib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-son qonuni banklarning kredit portfelini shakllantirishda mustaqilligini ta'minlasada, davlat organlarining aralashuvini taqiqlaydi. Shu bilan birga, Prezidentning 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni kredit portfelining sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarini optimallashtirish va yirik qarzdorlarning qarz yukini tartibga solishni bank islohotlarining asosiy yo'nalishlari sifatida belgiladi.

O'zbekiston bank tizimida 2020-2025-yillarda amalga oshirilgan islohotlar, xususan, kredit byuolarining soliq va kommunal tizimlar bilan integratsiyasi kredit risklarini baholashda aniqlikni oshirdi. Masalan, 2023-yilda onlayn kreditlar hajmi 13,3 trillion so'mga yetdi, lekin garovsiz iste'mol kreditlari umumiyligi portfelning 9% ni tashkil etib, risklarning oshishiga sabab bo'ldi. Global miqyosda sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar tahlili kredit risklarini boshqarishda muhim yutuqlarni ta'minlamoqda. 2024-yilda global banklarning 65% dan ortig'i AI-ga asoslangan scoring modellaridan foydalangan, masalan, JPMorgan Chase xarajatlarni 20% ga qisqartirdi. O'zbekistonda esa 36 tijorat bankidan faqat 23 tasi raqamli tahlil vositalarini qo'llamoqda, bu innovatsiyalarning cheklanganligini ko'rsatadi.



5 – jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari muammoli kreditlari (NPL) (1 yanvar holatiga yillar kesimida)

№	Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1.	Kreditlar, mlrd.so'm	2115 80,5	276974, 8	326385, 6	390048, 9	471405, 5	533121, 2
2.	Muammoli kreditlar (NPL), mlrd.so'm	3169 ,1	5784,8	16974,0	13992,4	16621,4	21185,1
3.	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda	1,5	2,1	5,2	3,6	3,5	4

Manba: Muallif tomonidan Markaziy bank ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

5 – jadval ma'lumotlari asosida, O'zbekiston tijorat banklarining umumiy kredit portfeli 2020-2025-yillarda o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. 2020-yilda 21,6 trillion so'm bo'lgan kredit hajmi 2025-yilga kelib 533,1 trillion so'mga yetib, 2,5 barobarga o'sdi. Bu o'sish O'zbekiston iqtisodiyotidagi kreditlash faolligining kuchayishi, 2020-2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimi tizimlari (P-5992-sون Farmon) va iqtisodiy o'sish sur'atlari (2024-yilda YIM 6% o'sishi) bilan bog'liq. kredit portfelining tez o'sishi kredit risklarini boshqarishda qo'shimcha yuk talab qiladi, chunki yuqori kreditlash hajmi muammoli kreditlarning ko'proq sotib olishi mumkin. Muammoli kreditlar hajmi 2020-yildagi 3,2 trillion so'mdan 2025-yilda 21,2 trillion so'mga oshdi, bu 6,7 barobar o'sishni anglatadi. Bu boradagi eng yuqori cho'qqisi 2022-yilda (16,9 trillion so'm) kuzatildi, bu iqtisodiy noaniqliklar, global ta'minot zanjirlari uzilishi va COVID-19 pandemiyasi bilan izohlanadi.



2023-yilda NPL hajmi 14,0 trillion so'mga qisqardi, bu Markaziy bankning qarz yukini tartibga solish bo'yicha to'lovi (masalan, qarzdorlarga tegishli) sifatida baholanadi. Biroq, 2024 va 2025-yillarda NPL hajmining qayta o'sishi (16,6 va 21,2 trillion so'm) garovsiz iste'mol kreditlarining o'sishi (2024-yilda 9%) va iqtisodiy noaniqliklar bilan bog'liq. Muammoli kreditlar (NPL) dinamikasi kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2020-yilda 1,5% bo'lib, 2022-yilda 5,2% ga yetdi, bu bank tizimida kredit risklarining keskin oshganini ko'rish. 2023 va 2024-yillarda ulushning qisqarishi (3,6% va 3,5%) banklarning kredit sifatini yaxshilash bo'yicha qabul qilingan rejalar, kredit byurolarining soliq va kommunal tizimlar bilan integratsiya natijasidir. lekin, 2025-yilda NPL ulushining 4,0% ga ko'tarilishi Fitch Ratings prognozlariga (2025–2026-yillarda 9–10%) mos keladi va kreditlarini boshqarishda davom etayotgan ta'kidlaydi.

Kredit berish faolligi tahlili 2024-yilda O'zbekiston tijorat banklarida kredit ajratish faolligi koeffitsienti (KAFK) 55% ni tashkil etib, muvozanatli kreditlash siyosatini ko'rsatdi. Ammo xususiy banklarda muammoli kreditlar (NPL) 2 trillion so'mdan oshdi, bu agressiv kreditlash va qarz oluvchilarning moliyaviy intizomi pastligidan dalolat beradi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, NPL ulushi 3,5% bo'lib, 2025-yilda 4% ga oshishi kutilmoqda. Basel III bo'yicha kapital yetarlilik koeffitsienti (CAR) 8% dan yuqori bo'lishi talab qilinsa, O'zbekistonda bu 24,3% ni tashkil etadi, lekin kredit portfelining sifati muammoli. Raqamli tahlilni kengaytirish risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

6 – jadval

O'zbekiston tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar (tarmoqlar
bo'yicha)

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					
		2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.	Sanoat	30,8	32,7	30,9	29,6	26,6	26,1



2.	Qishloq xo'jaligi	10,0	14,8	12,7	7,9	5,8	7,1
3.	Qurilish	3,9	3,9	4,1	3,9	2,7	2,8
4	Savdo va umumiy ovqatlanish	9,3	14,4	16,2	14,9	12,1	13,4
5	Transport va kommunikatsiya	6,9	3,4	3,8	3,6	3,8	2,5
6	Jismoniy shaxslar	18,8	22,4	24,4	32,1	39,9	36,4
7	Boshqalar	20,2	8,5	8,0	8,0	9,1	11,4

Manba: [https://yashil-iqtisodiyot-](https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2777/2921)


[taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2777/2921](https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2777/2921)

6-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston tijorat banklari kredit tarmoqlari bo'yicha taqsimotidagi o'zgarishlar muhim hisoblanadi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushi 2019-yildagi 18,8% dan 2024-yilda 36,4% ga o'sdi, ya'ni 17,6 foiz punktiga ko'tarildi. Bu ko'rinish 2023-yilda 39,9% bilan eng yuqori darajaga yetdi. O'sish iste'mol kreditlariga talabning kuchayishi, ayniqsa garovsiz kreditlarning 2024-yilda umumiy portfelning 9% ini tashkil etishi bilan bog'liq. Ammo, bu tendensiya muammoli kreditlar (NPL) ulushining 2024-yilda 3,5% va 2025-yilda 4,0% ga o'sishi (Fitch Ratings prognozi: 9–10%) kabi risklarni o'ylab. Boshqa tarmoqlarda kreditlash ulushi pasaymoqda. Sanoat sohasiga kreditlar 2019-yilda 30,8% dan 2024-yilda 26,1% ga (-4,7 foiz punkti), qishloq xo'jaligiga 10,0% dan 7,1% ga (-2,9 foiz punkti) qolmaydi. Qurilish (-1,1 foiz punkti) va transport va kommunikatsiya (-4,4 foiz punkti) sohalari ham qisqardi. Bu korporativ kreditlashning cheklanishi va davlat tomonidan berilgan subsidiyalarning qayta bilan izohlanadi. Savdo va umumiy ovqatlanish sohasi kreditlari 2021-yilda 16,2% ga yetib, 2024-yilda 13,4% ga tushdi, bu pandemiya bilan bog'liq talab o'sishi va keyingi tiklanishni aks ettiradi. Ushbu dinamika bank xizmatlariga talabning va korporativ kreditlashning qisqarishini ko'rsatish. Kredit faolligi koefitsienti (KAKF) 2024-yilda 55% ni tashkil etib, muvozanatli siyosatni bildirsada, NPL



o'sishi kredit sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish tahlilini ishlab chiqarish zarurligini ta'kidlaydi.

So'nggi oylarda aholining milliy valyutadagi muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari nisbatan barqaror shakllanayotgan bolsa, yuridik shaxslar depozitlari bo'yicha foiz stavkalari tebranishlar bilan pasayuvchi trendga ega ekanligi kuzatilmogda. 2025-yil 1-aprel holatiga iqtisodiyotga ajratilgan jami kredit qo'yilmalari qoldig'ining yillik o'sishi yil boshiga nisbatan 2,8 foiz bandga tezlashib, 16,8 foizni tashkil etdi (4,7 – rasm). Bunda, milliy valyutadagi kredit qo'yilmalari o'sishi 22 foizgacha (2024-yil dekabr oyida 19 foiz), xorijiy valyutadagi kredit qo'yilmalari o'sishi 7,2 foizgacha (2024-yil dekabr oyida 2,6 foiz) tezlashgan. Jumladan, milliy valyutadagi kredit qo'yilmalari qoldig'ining qariyb 79 foizi (yoki 49,9 trln so'm) uzoq muddatli kreditlar hissasiga (aholiga 30,9 trln so'm va xususiy korxonalarga 12 trln so'm), xorijiy valyutada ajratilgan kreditlarning esa 65 foizi uzoq muddatli kreditlar (asosan, xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar) hissasiga to'g'ri kelgan. Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i o'sishining tezlashuvi qisqa muddatli istiqbolda yalpi talabga oshiruvchi ta'sir ko'rsatsa, o'rta va uzoq muddatli davrda iqtisodiyotda yalpi taklifning ko'payishiga xizmat qilishi mumkin. Aksincha, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'idagi jadal o'sish qisqa muddatli davrda iqtisodiyotda yalpi talab hajmi ko'payishiga olib kelib, inflyatsiyaga oshiruvchi bosim yaratadi.



1 – rasm. Iqtisodiyotdagi kredit qo'yilmalari o'sish sur'ati, foizda



Manba:

https://cbu.uz/upload/medialibrary/d3e/rexh1clyf67zfiogbaeoksc524qrhb0p/Pul_kredit-siyosati-sharhi-I-chorak.pdf

1 – rasm tahlillariga ko’ra, 2025-yilning I choragida aholiga ajratilgan kredit qo‘yilmalari qoldig‘i o‘sishida biroz tezlashish kuzatilib, 2024-yil yakunigacha davom etgan pasayuvchi trend o‘suvchi trendga o‘zgardi. 2025-yil mart oyi yakuni bo‘yicha aholi kredit qo‘yilmalari o‘sishi yil boshiga nisbatan 1,7 foiz bandga tezlashib, 21,1 foizni tashkil etdi. Kreditlar tarkibida asosiy o‘sish mikroqarzlar, mikrokreditlar va ipoteka kreditlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, avtokreditlar qoldig‘ining pasayishi 2,4 foizgacha tezlashgan.


2025-yilning yanvar-mart oylarida aholiga jami 34,9 trln so‘mlik yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 74 foizga ko‘p kreditlar ajratilgan. Aholiga ajratilayotgan kreditlarining nisbatan tezlashuvini aholi daromadlari o‘sishi fonida ularning ipoteka krediti, mikroqarz va mikrokreditlarga bo‘lgan talabining ortishi bilan izohlash mumkin. 2025-yil I choragida jami aholiga ajratilgan kreditlarning 53,6 foizi mikroqarzlar, 15,6 foizi mikrokreditlar, 12,8 foizi ipoteka kreditlari, 10 foizi avtokreditlar va qolgan 8 foizi boshqa kreditlar hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. Bundan tashqari, 2025-yil I choragida o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda mikroqarz va mikrokreditlar mos ravishda 2,3 va 1,9 barobarga, kredit kartalari orqali ajratilgan mablag‘lar 3,3 barobarga, ipoteka kreditlari 26,3 foizgacha o‘sgan bo‘lsa, avtokreditlar 17,6 foizgacha kamaygan.

Umumiy kreditlarga bo‘lgan talabning yuqori shakllanishi, inflyatsion kutilmalar yuqoriligi va tashqi moliyaviy sharoitlarning qat’iyligi hamda ichki moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabning ortishi fonida muddatli depozitlar foizi 2025-yil I chorak davomida sezilarsiz tebranishlar bilan o‘rtacha 19,2 foiz atrofida shakllandı. Shuningdek, mart oyida jismoniy shaxslar muddatli depozitlari bo‘yicha o‘rtacha nominal foiz stavkasi 22,1 foizni, inflyatsion kutilmalarini inobatga olgan holda hisoblangan real foiz stavkasi esa 6,9 foizni tashkil etdi.



Tijorat banklarida kredit risklarni boshqarish usullari bankning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatlar yig'indisini o'zida kas ettiradi. Ayniqsa, iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan bir qatorda kreditlash hajmining ortib borayotgani sharoitida, ushbu risklarni chuqur tahlil qilish va samarali boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, "Agrobank" ATB misolida kredit risklarini tahlil qilish – bu nafaqat amaliyotga yo'naltirilgan tahliliy ish, balki bank faoliyatini optimallashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan muhim tadqiqotdir.

"Agrobank" ATB respublikamizda eng yirik va ixtisoslashgan banklardan biri bo'lib, ayniqsa qishloq xo'jaligi, kichik biznes va hududiy loyihalarni moliyalashtirishda faol ishtirok etadi. Bankning bu boradagi faoliyati kredit portfelingining sifati, xavf darajasi, risklar bo'yicha zaxira siyosati va monitoring tizimi orqali tahlil qilinadi. Ushbu bo'limda "Agrobank" ATBda 2020–2024 yillar davomida amalga oshirilgan kredit siyosati va risklarni boshqarish amaliyoti asosida chuqur tahlil olib borildi, xalqaro tajriba bilan taqqosiy yondashuv qo'llanildi hamda amaliy tavsiyalar shakllantirildi.




2-rasm "Agrobank" ATB kredit ajratish bo'yicha faollik koeffitsiyenti, mlrd so'm, (2020-2025 yillar) **Manba:** Muallif tomonidan "Agrobank" ATB ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

"Agrobank" ATBning kredit portfeli 2020 yil 1-aprelda 18,688 mlrd so'mdan 2025 yil 1-aprel holatida 64,633 mlrd so'mgacha o'sdi (346% o'sish, yillik



o'rtacha ~19,3%). Eng yuqori o'sish 2022 yil 1-oktyabrdan 2023 yil 1-aprelgacha (37,291 mlrd.dan 47,866 mlrd. so'mgacha, 28,4%) qayd etildi.

Kredit portfelining doimiy o'sishini va muommoli kreditlarning (NPL) ulushining o'zgaruvchanligini (1.1–5.2%–4.5%) ko'proq ta'sir etmoqda. Yuridik shaxslarning NPL ulushi (2021 yilda 3,64%) jismoniy shaxslarnikidan (1,56%) 2,3 barobar yuqori bo'lib, NPL o'sishiga asosiy hissa qo'shadi. 2024 yilda NPL ulushining tekshiruvi (3,4%) monitoring yaxshilanishi bilan bog'liq, 2025 yilda 4,5% ga ko'tarilishi real vaqtdagi monitoring tizimi yo'qligi va M2 pul massasi o'sishi (277.064,6 mlrd so'm) o'z ta'sirini aks ettirdi.



3-rasm. “Agrobank” ATBning kredit portfeli, NPL, yuridik va jismoniy shaxslarning NPL ko'rsatkichlari tahlili (2020–2025 yil, choraklik). **Manba:** Muallif tomonidan “Agrobank” ATB ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Muummoli kreditlar (NPL) 2020 yilda 214 mln so'mdan 2025 yilda 2,9 mlrd so'mgacha o'sdi (13,5 barobar). Eng yuqori NPL 2025 yil 1-yanvarda (2,903 mlrd. so'm), eng pasti 2020 yil 1-aprelda (214 mln. so'm) qayd etildi. NPL ulushi 2020 yilda 1,1% dan 2021 yilda 5,2% gacha o'sdi, 2024 yilda 3,4% ga tushdi, ammo 2025 yilda 4,5% ga ko'tarildi. O'rtacha NPL ulushi 3,61%. Yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit portfelining 60% i yuridik shaxslar hissasiga tog'ri keladi bu asosan (qishloq xo'jalik) yo'nalishi hissasiga to'g'ri keladi, 40% i jismoniy shaxslar (kichik biznes, iste'mol kreditlari) hisobiga to'g'ri keldi. Yuridik



shaxslarga ajratilgan kreditlarning muommoli kreditilar NPL ulushi yuqori. 2020 yil 1-yanvar holatida M2 pul massasi 95.166,9 mlrd so'mdan 2025 yil 1-yanvarda 277.064,6 mlrd so'mgacha o'sdi (191% o'sish, yillik o'rtacha ~15,8%). Eng yuqori o'sish 2022 yilda (145,254,6 mlrd.dan 189,085,1 mlrd. so'mgacha, 30,2%) kuzatildi. Inflyatsiya esa 2020 yilda 11,1% dan 2025 yilda 8,7% gacha pasaydi (cbu.uz). Eng yuqori inflyatsiya 2022 yilda 12,3%, eng pasti 2024 yilda 8,1% ni tashkil etdi.

Risk-appetiti ko'rsatkichlarini aniqlash jarayonida joriy riskni baholash, risk darajasi prognozi va turlari hamda bardoshlilik prognozi amalga oshiriladi, shuningdek, Bank faoliyatining tashqi va ichki cheklovleri aniqlanadi va risk qilishning yakuniy ko'rsatkichlari tanlanadi. Bank risk-appetiti ko'rsatkichlarini aniqlashda bank o'zining hozirgi va kelgusi davrlarda riskni qabul qilish qobiliyati, bankning maqsadli ko'rsatkichlari va strategik hamda joriy rivojlanish yo'nalishlari, bank qonunchiligining hozirgi va kelajakdagi talablari, bankning investorlar tomonidan kutayotgan natijalari, shu jumladan moliyaviy shartnomalari, bank mavjud bo'lgan mintaqalarda bank sektorini rivojlantirish istiqbollari, bank asosiy raqobatchilarining faoliyati va moliyaviy ko'rsatkichlari, reyting agentliklarining so'nggi professional xulosalarida qayd etilgan bankning kredit reytingini qo'llab-quvvatlash va oshirish omillarini hisobga olish lozim. Bankning tavakkalchiliklarni boshqarish bo'limasi tomonidan risk-appetiti va risk-profilni ko'rsatkichlarining limitlarini boshqarish bo'yicha bank tarkibiy bo'linmalarining ishini muvofiqlashtiradi, hozirgi va kelajakdagi davrlarda, shu jumladan, yirik bitimlar va yangi operatsiyalar turlarini amalga oshirishda risk-appetiti va risk-profilining holatini baholaydi, risk-appetiti hamda risk-profilni ko'rsatkichlariga rioya qilinishini nazorat qiladi va bank boshqaruviga ko'rsatkichlarning buzilishlari to'g'risida hisobot beradi. Bankning biznes yo'nalishlari bo'limlari operatsiya turlari bo'yicha risk – appetitining eng yuqori ko'rsatkichlarini belgilaydi. Yirik bitimlar va yangi operatsiyalarni amalga



oshirishdan oldin, risk-profilining ko'rsatkichlar monitoringi va shunga mos ravishda bankning risk-appetiti ko'rsatkichlariga muvofiqligi har oyda yoki zarur hollarda tez-tez amalga oshiriladi. Buzilishlar aniqlangan taqdirda bank tomonidan risk darajasini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Bankning risk-appetitini boshqarish chora-tadbirlari

I - bosqich: Risk-appetiti ko'rsatkichlarini aniqlash;

II - bosqich: Risk-appetiti ko'rsatkichlarini muhokama qilish va tasdiqlash;

III - bosqich: Risk-profilni ko'rsatkichlari chegaralarini belgilash;

IV - bosqich: Risk-appetiti ko'rsatkichlari monitoring;

V - bosqich: Risklarni kamaytirish uchun qarorlar qabul qilish. Risk-profillarini erta aniqlash va risk-profillarini risk-appetiti ko'rsatkichlariga muvofiqlikni ta'minlash maqsadida bank doimiy ravishda risk darajasi va dinamikasini tahlil qilishi uchun risk-profilining ko'rsatkichlaridan foydalanadi. Risk-profilni ko'rsatkichlarini shakllantirish ulardan foydalanish va takomillashtirish jarayonida Bank quyidagi tamoyillarga asoslanadi: Risk-profilni ko'rsatkichlari qatorida moliyaviy, yil davomida bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har bir muhim risklarni har tomonlama baholaydigan ko'rsatkichlar bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Altman, E. I. (1968). Financial nisbats, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy. "Journal of Finance", 23(4), 589-609.
2. Brown, J., & Smith, L. (2019). Enhancing bank profitability through digital risk management. "Journal of Banking & Finance", 45, 112-130.
3. Claessens, S., & Laeven, L. (2004). What drives bank competition? Some international evidence. "Journal of Money, Credit and Banking", 36(3), 563-583.
4. Friedman, M. (1968). The role of monetary policy. "American Economic Review", 58(1), 1-17.



5. 24. Xasanov, Sh. (2023). KOB kreditlarining O'zbekiston banklarida risklarni boshqarishga ta'siri. "DSc dissertatsiyasi", Toshkent.
6. 25. Xasanov, Sh., & Ismoilov, D. (2020). O'zbekiston bank tizimida kredit risklarining tahlili. *Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali*, 5(2), 112-128.